

**MAHALLIY SHAROITDA O’SADIGAN CAPPARIS SPINOSA L. NING  
BIOLOGIYASI VA FARMATSEVTIK AHAMIYATI**

**G’.Raximov**

*O’zbekiston -Finlandiya pedagogika instituti dotsenti*

**S.A.Axrorova**

*O’zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kovul (*Capparis spinosa* L.) o’simligining taqalish hududlari, biologiyasi va dorivorlik xususiyatlari, tabobatda qullanilishi, hamda muhofaza qilish zarurligi keltirilgan.

**Kalit so’zlar:** Kovul, kovar (*Capparis spinosa* L.) rezavor meva, saponinlar, alkaloidlar, lalmi erlar, iqtisodiy asoslar, Eron, Samarkand, texnologiya .

**Аннотация.** В данной статье описаны биологические и лечебные свойства растений Ковул, Ковар (*Capparis spinosa* L.). произрастающего в местных условиях.

**Ключевые слова:** Ковул, ковар (*Capparis spinosa* L.), Эран, Самарканд, Жиззак, Нурабад,технология

**Annotation.** this article describes the biological and medicinal properties of the plants Incense (*P. harmala*), Kovul, kovar (*Capparis spinosa* L.).  
Key words: , Kovul, kovar (*Capparis spinosa* L.), Eron, Samarkand, technology

**Kirish.** Qishloq xo’jaligiga mo’ljallangan yerlarning umumiy maydoni 20236,3 ming ga shundan lalmi ekin yerlari 756.7 ming ga tashkil etadi. Lalmikor yerlar, bahorikor yerlar-adir zonasidagi sug’orilmay dehqonchilik qilinadigan yerlar. Lalmi dehqonchilik o’rtacha yillik yog’ingarchilik 200 mm dan yuqori bo’lgan hududlarda tarqalgan. Lalmikor dehqonchilik sug’orish uchun noqulay bo’lgan yerlardan foydalanish imkonini berganligi uchun ham katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Kovul asosan, Afg’oniston, Eron, Turkiya, O’rta Osiyo, Janubiy Qozog’iston va Zakavkazyening tog’ oldi va vohalari atroflarida tarqalgan.

Sug’orish imkonining yaratilishi bilan lalmikor yerlar sug’oriladigan dehqonchilik maydonlarini kengaytirishda katta rezerv hisoblanadi. O’zbekistonda lalmi ekin maydoni 734 ming ga, shu jumladan, uning asosiy qismi (ming ga) Jizzax (220,9), Qashqadaryo (252,0), Samarqand (175,5) viloyatlarida joylashgan. Bu yerlarning 99,8 ming ga maydoni yog’ingarchilik bilan yetarli miqdorda, 553,7 ming ga maydoni o’rtacha va 89,5 ming ga maydoni kam ta’minlangan (2003).

Respublikamiz lalmikor dehqonchiligi ob-havo, tuproq unumdorligi va o’simliklar dunyosi vertikal zonallik qonuniyatiga asosan o’zgarib boradi hamda

tuproq va iqlim sharoitlariga ko'ra quyidagi mintaqalarga bo'linadi. Lalmi yerlar Respublika tog' oldi va past tog'larda mavjud bo'lib, ularning jami maydoni qariyb 500 ming ga yaqin. Olinadigan g'alla hosili o'rtacha (atmosfera yog'inlarining miqdoriga qarab) 8-12 ts. gacha boradi. Respublikada lalmi ekin yerlaridan foydalanish xolati yaxshi emas shuning uchun bizningcha tog' oldi va tog'li hududlardagi lalmi ekin yerlarga kovul dorivor o'simligini ekish maqsadga muvofiq.

**Mavzuning dolzarbligi.** Bugungi kunga kelib global iqlim o'zgarishi natijasida lalmi yerlardagi tabiiy namlik ko'rsatkichi tushib ketmoqda shunga ko'ra bunday hududlarda kovul dorivor o'simligini ekish iqtisodiy samara beradi. Samarqand viloyati Nurobod tumani misolida lalmi yerlarda kovul dorivor o'simligini ekib lalmi yerlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish mumkin. Tumanning biroz qismi tekislik bo'lsa, shimoliy va janubiy-g'arbiy qismi qir, baland adir va tog'lardan iborat.. Iqlimi keskin kontinental, yozi quruq, qishi sovuq. Yanvarning o'rtacha temperaturasi  $-2^{\circ}$ , iyulniki  $32^{\circ}$ . Yillik yog'in 270-320 mm. Vegetatsiya davri 240 kun. Tuproqlari sariq tuproq, lyosslardan iborat. Markaziy va shimoliy qismidagi adirlarning tuprog'i lyos ustida hosil bo'lgan bo'z, och bo'z, tipik bo'z tuproq. Soylik, jar ko'p. Qishloq xo'jaligida g'allachilik, bog'dorchilik, tokchilik, chorvachilik (shu jumladan, qorako'chilik) rivojlangan. Ekin maydonlariga don, sabzavot, kartoshka, poliz va ozuqa ekinlari ekiladi. Shirkat, fermer xo'jaliklari, o'rmon xo'jaligi ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi, urug'chilik firmasi va boshqalar bor. Tumandagi jamoa va shaxsiy xo'jaliklarda qoramol, qo'y va echki, parranda, yilqi boqiladi. Tuman qishloq xo'jaligi ekin yerlarining deyarli butun qismi lalmi ekin yerlaridir.

Kovul, Kovar (*Capparis Spinosa L*)-kovuldoshlar oilasiga mansub bo'lib buyi 2-2,5 m ga yetadigan yarim butadir. Poya va shoxchalari yotiq, bargi tuxumsimon, guli yirik oq yoki och pushti. Mevasi qizil etli, ko'p urug'li. Qrim, Kavkaz, O'rta Osiyo, Shimoliy Afrika va O'rta dengizning tishloq yerlarida ko'p tarqalgan. Janubiy Yevropada ekiladi. Cho'l va adirlarda, yo'l bo'ylarida, devorlar ustida ekinlar orasida o'sadigan kovul ko'p urug'li rezavor bo'lib, mevalari etdor, uzunligi 2 sm ga boradi. Mevasida 18% oqsil moddalar, 36% gacha moy bor. Hamda mevalari tarkibida 150 mg askorbin kislota, 3,75% moy, ildizi po'stlog'idan staxidrin alkaloidi mavjud.

**Xalq tabobatidagi o'rni.** Ma'lumki, ona tabiatimiz turli tuman dorivor hamda, oziq ovqat uchun foydalanadigan o'simliklarga boy. Respublikamiz hududlarida ham biz uchun beminnat dorivor o'simliklar ham yo'q emas. Shulardan biri har bir inson bilgan va bir-qancha kasalliklarni davolashda keng foydalanib kelayotgan kovul o'simligidir. Kovulning pishgan mevasi, barglari, novda va ildiz po'stlog'idan xalq tabobatida foydalaniladi. Kovul o'simligi stenokardiya, sariq kasalliklar, Teri

kasalliklarida, Teriotaksikoz, Gemorroyda, Qandli diabet kasalliklarida foydalaniladi. Qandli diabet kasalligida uni quritib maydalaniladi novda ba bargidan 1-oshqoshiq olinib ustiga 200 ml suv qo'yiladi hamda 4-5 minut qaynatiladi. Qaynatib olingan damlama sovitilgan holda kuniga 3-4 mahal 2 oshqoshiqdan ichilsa ushbu kasallikni oldini olishi shuningdek, uning xurujlariga qarshi ishlatoladi. Bugungi kunda uning pishgan mevasidan xalq tabobatida foydalanib kelinmoqda. Ochilmagan g'unchalari May-avgust oylarida yig'ib olinadi.



**1-rasm. Kovul guli**

Oziq-ovqatda uning g'unchali novdalari sirka kislotasi olishda ishlatiladi. Shu bilan birga yosh, yog'ochlasha boshlagan novdalari va ildizining po'stlog'i shilib olinadi, maydalanadi hamda quyoshda yoki 50-60 °C haroratda quritiladi. Po'stlog'idan tayyorlangan damlama ishtaha ochuvchi ta'sirga ega. Xalq tabobatida yiringli yaralarni davolash uchun ishlatiladi. Yangi shilingan po'stlog'i og'riq tishga bosilganda ijobiy natija beradi. Ba'zan ochiq yiringli yaralarga qo'yilganda antiseptik ta'sir qiladi.



**2-rasm. Kovulning o'rug'lari**



**Kovul shifobaxsh o’simligining dasturxondagi ahamiyati:** Kovulning g’unchasidan tayyorlangan marinat fransuzlarning xushxo’r, ta’mi kishiga huzur bag’ishlaydigan taomi hisoblanadi. G’uncha, meva va mayin novdalarini sirkalab ziravor sifatida ishlatish mumkin. Kovul taom va pishiriqlar tayyorlashda ko’p qo’llaniladi.

Kovulning bu xususiyatlarini, sihat-salomatlikka foydasi bisyorligini aksariyat insonlar bilmaydi. Kovulning yashil g’unchalari ta’mi unchalik yaxshi emas, biroz achchiqroq. Ammo unga ishlov berilgandan keyin bu ta’m yuqoladi. Tuzlangan va marinatlangan kovul go’shtli taomlarga, salatlariga qo’shib iste’mol qilinadi. . Keyingi paytlarda esa kovul ildizining spirtidagi tindirmasi ishlatilmoqda. Kovul tarkibida rutin moddasi ko’p bo’lgani bois qon bosimini tushirishda foydalaniladi. Kovul ayollar uchun foydali giyoh bo’lib, uni iste’mol qilish tanani ankologik kasalliklardan himoya qiladi. Mabodo ishtaha bo’lmasa tushlik payti ovqatdan oldin bir nechta kovul yeyilsa ishtahani ochadi. Shu bilan birga oqsillar, karbon suvlari, efir moylari kabi organik moddalar va Ca, Mg, Na, K, P, Fe, Zn, Cu, Mn kabi biogen elementlar mavjud. Kovul bargi bosh og’riganda, qobiqlari qora jigar(taloq)ni davolashda, ildiz va barglaridan tayyorlangan malham chipqon va boshqa yaralarni tuzatishda ishlatilib kelingan. Meva qaynatmasi milkni mustahkamlaydi va tish og’rig’ini bosadi. Ildiz qaynatmasi esa sariq kasalligida shifo bo’ladi.



**3-rasm: Kovulning pishgan o’rug’lari.**

Kovuldan olingan ekstrakt Hindistonda ishlab chiqarilgan va tibbiy amaliyotda tasdiqlangan ЛИБ-52 kompleks preperatining bir qismi hisoblanadi. U tabletkalar shaklida chiqariladi va jigar kasalligi uchun buyuriladi. O’simlikning yangi qismlari biriktiruvchi, siydik haydovchi, antiseptik va og’riq qoldiruvchi xususiyatlariga ega. Kovul gullarining sharbati yaralarga surtish va shirincha kasalligida ichish uchun ishlatiladi. Kovul ildizlarining yangi, tozalangan po’stlog’I tish og’rig’I uchun

chaynaladi va yiringlayotgan yaralar ustiga qo'yiladi. Kovulning mevalari xalq tabobatida tish og'rig'I, tish milki, qalqonsimon bezi, bavoil kasalliklarida qo'llaniladi. Ezilgan kovul ildizlarining po'stlog'I bod kasalligida va brutselyoz uchun ishlatiladi.

Ildiz po'stlog'ining damlamasi stenokardiya, asabiy tutqanoqlarda, falajda, shamollashli revmatik og'riqlarda, taloq kasalliklarida, jigar kasalliklarida, shu jumladan, sariq kasalligida qo'llaniladi. Xuddi shu damlama bilan qichima va teri kasalligida teriga surtish uchun ham foydalansa bo'ladi.

**O'simlikni muhofaza qilishdagi ishlar.** Respublikamizning Jizzax viloyatidagi yangi, ilgari ro'yxatdan o'tmagan zich o'sadigan maydonlarni tekshirish va Qashqadaryo, Surxandaryo, Samarqand, Navoiy, Buxoro viloyatlaridagi zich o'sadigan maydonlarni aniqlash, shuningdek, 15-17 yil oldin o'rganilgan Farg'ona vodiysining zich o'sadigan maydonlarini saqlab qolingani tasdiqlash uchun safarlar o'tkazilgan va ushbu hududlarda kovul o'simligi yashovchanligini saqlab qolganini guvohi bo'lishgan. Ma'lumotlarimizga ko'ra, Samarqand, Jizzax va janubiy viloyatlarining ochiq chul bilan tutashgan hududlarida tikanli kovulning deyarli toza zich o'sadigan maydonlarini egallagan katta maydonlar mavjud. Ayniqsa ushbu maydonlarda yullar davomida o'sib kelayotgan kovul o'simlik turlarini saqlab qolish va asrash talab etiladi. Shuni yodda tutish kerakki, har yili xom ashyo yig'ish mumkin bo'lgan yillik hajmi tabiatda mavjud bo'lgan zaxiralarning 10-20 foizidan oshmasligi lozim.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, Kovul o'simligi bu bizning boyligimizdir. Hammamizga ma'lum Ota-bobolarimiz kasalliklarga davoni tabiat inom etgan o'simliklardan olishgan. Kovul o'simligi ham shu bebaho o'simliklar qatorida turli xil kasalliklarga davo bo'lishini yuqorida ham aytib o'tdim. Shuningdek, o'simlikning guli nektarga boy bo'lib, asalarilarni o'ziga maftun etish xususiyatiga ega. Bu ham o'z navbatida o'simlikning tabiiy changlanishini ifodalaydi. Kovulchilikni rivojlantirish yana bir necha tarmoqlar istiqboliga, ko'plab yangi ish o'rinlarini ochilishiga va qo'shimcha daromad manbai yaratilishiga hamda ish o'rinlar yaratilishiga keng imkoniyat ochib beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Atabayev N, Qofirxo'jayev O, "O'simlikshunoslik" Toshkent 2016-yil.
2. Xojimatov O.K. Haydarov X.Q, Xamraev va boshqa., "O'zbekiston dorivor o'simliklar atlasini" o'quv qo'llanma. Samarqand-2021.
3. Mamatkulova I.E., Abduraimov O.S. O'zbekiston florasidagi ayrim dorivor va ziravor turlarining ahamiyati. (Apiaceae Lindl.) "Fan, ta'lim va texnikani innovatsion rivojlantirish masalalari" Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjuman materiallari to'plami (2022 yil 12 aprel, Andijon).

4. Фралов А.И., Бойкул С, Қ Ахмедова. “Табиий шароита Allium туркуми айрим турларининг уруғ маҳсулдорлиги” Academic research in educational sciences 3 (1), 164-169
5. Уралов А.И., Печеницын В.П. Зависимость семенной продуктивности луковичных видов Allium L. от количества листьев на генеративном побеге. доклады АН РУз, 74-77
6. <https://xs.uz/uz/post/kovul-oyogimiz-ostidagi-khazina-yokhud-tog-yonbagirlaridauni-rivozhlantirish-omillari-khususida>
7. [https://www.researchgate.net/publication/313677692\\_THE\\_CHEMICAL\\_CONSTITUENTS\\_AND\\_PHARMACOLOGICAL\\_EFFECTS\\_OF\\_CAPPARIS\\_SPINOSA\\_-\\_AN\\_OVERVIEW](https://www.researchgate.net/publication/313677692_THE_CHEMICAL_CONSTITUENTS_AND_PHARMACOLOGICAL_EFFECTS_OF_CAPPARIS_SPINOSA_-_AN_OVERVIEW)
8. [WWW.Planta-medica.uz](http://WWW.Planta-medica.uz)
9. [WWW.SamDU.liberary.uz](http://WWW.SamDU.liberary.uz).